

JINOYAT ISHINI YURITISHDA DALILLARNI TO'PLASH, MUSTAHKAMLASH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Utebaev S. M., Dauletbaeva A.B.

Qoraqalpoq davlat universiteti

O'tkan asrlar davomida qidiruv, jinoyat, sud, dalil va isbot qilish kabi tushunchalar yuzaga kelgan. Nafaqat jinoyat protsessi, balki fuqarolik, iqtisodiy, hakamlik sudlarida ishni odil sudlov va qonuniylik tamoyillariga amal qilgan holda kórib chiqish zarur. Sud hukmi yoki hal qiluv qarorini chiqarish mazkur prinsiplarga tayangan holda amalga oshirilishi sudning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 9-moddasi "Ayb uchun javobgarlik" prinsipi, 10-moddasi "Javobgarlikning muqarrarliligi" prinsipi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi 22-moddasi "Haqiqatni aniqlash" prinsipi, 26-moddasi "Dalillarni bevosita va og'zaki usulda tekshirish" prinsipi deb nomlanadi. Yuqoridagi sanab o'tgan tamoyillarni ta'minlashda dalillar va isbot qilish muhimdir. So'roq va tergov qilish, sud majlisida ishlarni muhokama qilish jarayonida dalillarga asoslangan holda shaxslar so'roq yoxud tergov qilinadi yoki sud majlisida ishtirokchi sifatida qatnashadi.

Dalillar tushunchasi har bir huquq sohasida o'z o'rniga ega institutlardan biri. Jinoyat, iqtisodiyot va fuqarolik protsessual kodekslarida har birida dalillar va isbot qilishga alohida boblar ajratilgan. Bu esa uning qiymatini yanada oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi uchinchi bo'limi dalillar va isbot qilinishi lozim bo'lgan holatlar, 8-bob "Dalillar", 9-bob "Isbot qilishning umumiy shartlari" deb nomlanadi. Dalil-ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan yoki yuz bermaganligini, shaxsning aybdor yoki aybsizligini, ishni to'g'ri hal qilish uchun qonunda belgilangan tartibda aniqlangan ma'lumotlardir [1.46]. Dalillar tushunchasi kengaytirilgan holda o'rganib chiqilganda dalillar va isbot qilish tushunchalari paydo bo'ladi. Olimlarning fikricha "dalil" va "isbot qilish" tushunchalari bir xil manoni anglatmaydi. Mazkur ikki tushuncha ikki xil ma'nolarda qo'llaniladi. Jinoyat protsessual kodeksi 81-moddasida ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi deb ko'rsatilgan [2]. Isbot qilish deganda, subyektlarning jinoyat-protsessual qonunga asoslangan holda, muayyan jinoyat ishiga tegishli bo'lgan har qanday ma'lumotlarni protsessual tartibda to'plash, mustahkamlash, tekshirish va baho berish, shuningdek, davlat nomidan bu ma'lumotlarning mavjudligini tasdiqlash faoliyati tushuniladi. Dalillarga qo'yiladigan talablar: Dalil o'zida jinoyat ishi uchun muhim bo'lgan vaziyatni ifodalagan bo'lishi shart; Dalillar qonun talablariga muvofiq holda olinishi lozim; Dalillar ishning tafsilotlarini batafsil aniqlash uchun yetarli bo'lishi zarur; Dalil har tomonlama ishonchli va maqbul bo'lishi kerak; Dalil ishga aloqador va tegishli manbalardan olingan bo'lishi lozim; Dalillar qonunda belgilangan usullar yordamida o'rganilgan, tahlil qilingan, tasdiqlangan va baholangan bo'lishi lozim.

Dalillar tushunchasini o'rganish jarayonida turli konsepsiyalarga tayanadilar. Masalan arxaik, mantiqiy model, "ikki yoqlamalik" va information model kabilardir. Huquqshunos olimlardan biri V.Y.Doroxovning fikricha jinoyat ishini yuritishda isbot qilish predmetiga kiruvchi faktlarni dalillar deb atash mumkin emas, inson tafakkurida narsalar, ashyolar emas, balki ularning tashqi ko'rinishlari, tushunchalari, ular to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lib ular o'zaro munosabatga kirishadilar [3.8].

Dalillarni kengroq va chuqurroq o'rganishimiz uchun uni guruhlarga tasniflashimiz to'g'ri bo'ladi. Dalillarni tasniflash-bu muayyan bir belgilariga, mezonlarga va xususiyatlariga qarab toifalarga ajratishdir. Dastlab dalillarni yuzaga kelish manbasiga, asoslariga qarab dastlabki va hosila dalillarga ajratamiz. Dastlabki dalillar-olinishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning birinchi manbadan olinishi ya'ni guvohning ko'rsatmalari, ekspertning xulosasi kabilar. Hosila dalillar-isbot qilinishi lozim bo'lgan dalillarning birinchidan emas, boshqa manbadan olinishi hisoblanadi. Dalillarning ashyoviy, og'zaki, yozma va elektron, ayblovchi va oqlovchi, to'g'ri va egri dalillar kabi turlari ham mavjud. Ashyoviy dalillar moddiy dunyodagi ashyolardan iborat dalillar hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksi 203-moddasiga muvofiq, kelib chiqishi, kimga tegishliligi, ma'lum maqsadlarda foydalanilganligi yoki uning yaroqliligi, qo'ldan-qo'lga o'tganligi yoki turgan joyi o'zgarganligi, u yoki bu modda, narsa, jarayon yoki hodisalar ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo'lgan fizikaviy alomatlar, ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday xususiyatlarga ega bo'lgan narsalarni ashyoviy dalil sifatida topishimiz mumkin. Og'zaki dalil — guvohlarning so'zlari va suddagi ifodalari. Guvohlar o'z ko'rganlarini yoki eshitganlarini sudda aytadilar [4.39]. Yozma dalillar-xatlar, yozishmalar, hujjatlar, shuningdek turli xil chizmalar, xaritalar, kitoblar, koordinata o'qlari, diagrammalar, matematik tenglamalar, umumlashtirib aytganda, jinoyat sudi ishini hal qilish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlar to'g'risida ma'lumot beruvchi yozma manbalardir. Elektron dalillar-asosan elektron hujjat, elektron yozishmalar, Internet xabarlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Olingan ma'lumotlar va aniqlangan dalillarning mazmuniga qarab ayblovchi va oqlovchi dalillarga ajratamiz. Ayblovchi dalillar deganimizda aybini tasdiqlovchi ma'lumotlardan iborat bo'lgan dalillar tushuniladi. Oqlovchi dalillar-bu ayblovni inkor qiluvchi, ayblanuvchi shaxsning aybsizligini tasdiqlovchi, javobgarligini yengillashtiruvchi holatlar to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat dalillar. Shaxsning aybdorligi va aybsizligiga nisbatan dalillar to'g'ri va egri dalillarga ajratiladi. Isbot qilinadigan holatlarni to'g'ridan-to'g'ri va bevosita belgilaydigan dalil-to'g'ri dalildir. "Oraliq, yordamchi" faktlar orqali bu holatni belgilaydigan dalil esa egri dalil deb nomlanadi.

Dalillar yuqorida sanab o'tilgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Dalillarni tekshirish, ularga baho berish, qayd etish va dalillarning maqbul emasligi kabi tushunchalar ham mavjud. Dalillarni tekshirishda ish bo'yicha qabul qilingan har qanday qaror diqqat bilan, har tomonlama to'liq va xolisona tekshirilishi darkor. Har bir olingan dalil yuritilayotgan

ishga qanday aloqasi borligi, ishonchliligi va maqbulligi nuqtai nazaridan baholanadi, shuningdek, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan barcha holatlar sinchkovlik bilan, qonunga va huquqiyonga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bilan baho beradilar. Agar ma'lumotlar belgilangan tartibda to'plangan va Jinoyat-protsessual kodeksining 88, 90, 92-94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bo'lsa dalillar maqbul dalillar deb tan olinadi. Dalillar Jinoyat-protsessual kodeksining 95¹-moddasiga ko'ra, agar faktik ma'lumotlar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo'li bilan yoxud JPK talablari buzilgan holda olingan bo'lsa maqbul emas dalillar hisoblanadi [5] Surishtiruvchi yoki tergovchi tergov harakatlari tamom bo'lishi bilan oq bu harakat ishtirokchilariga bayonnomani o'qib chiqishga imkon beradi yoxud iltimoslariga ko'ra ularga o'qib beradi. Shunday tartibda raislik qiluvchi yoki uning topshirig'iga binoan sud majlisi kotibi sud zalidan tashqarida bajarilgan sud harakati ishtirokchilari, shuningdek tarafdari sud majlisi bayonnomasidagi ushbu sud harakatiga taaluqli yozuvlar bilan tanishtiriladi. Tergov harakati bayonnomasi bilan tanishtirilgan shaxslar bayonnomaning har bir sahifasi ostiga va uning oxiriga imzo chekadilar.

Nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyo miqyosida ishlarni qonuniy va odil amalga oshirish, ko'rish va hal qilish uchun dalillardan foydalaniladi. Shunday davlatlardan biri Italiyadir. Italiya Jinoyat protsessual kodeksi 187, 190, 192-moddalarida dalillar tushunchasi, uning obekti va dalillarni baholash haqida keltirilgan. Italiya jinoyat protsessual huquqida dalil — bu sudyaga muayyan faktning mavjudligi yoki mavjud emasligini asoslashga xizmat qiladigan har qanday ishonchli axborot, ma'lumotdir [6]. Dalilning asosiy maqsadi — sudyaning ichki ishonchini ("libero convincimento del giudice") shakllantirish hisoblanadi. Italiyada dalillarni tasniflash toifalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi huquqiga yaqinroq bo'lsada ayrim o'ziga xos xususiyatlariga ega. Dalillar kelib chiqishiga ko'ra bevosita va bilvosita, manbaiga ko'ra shaxsiy va ashyoviy, huquqiy kuchiga ko'ra qonunda qat'iy belgilangan dalillar, sudyaning erkin bahosiga ega dalillar, protsessual tartibiga ko'ra tomonlar taqdim etadigan dalillar va sud tashabbusi bilan olingan dalillar kabi turlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, dalillar jinoyat-protsessual huquqining eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Jinoyat bo'yicha sud ishlarini odil yuritishda, qonuniy amalga oshirishga va adolatli hal qiluv qarorini qabul qilishda dalillarga asoslanadi. Dalillarni yanada chuqurroq o'rganishimiz uchun uni toifalarga ajratish to'g'ri bo'ladi. Shundagina uning asl mazmunini anglay olamiz. Shu bilan birga Italiya jinoyat-protsessi huquqida dalillar tushunchasi bilan O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual huquqida ko'pchilik jihatlari bilan bir-biriga mos keladi.

ADABIYOTLAR

1. G.Z.To'laganova.(Mualliflar jamoasi). Jinoyat protsessual huquqi. Darslik. Toshkent.2021. 46-bet.
2. O'zbekiston respublikasining jinoyat-protsessual kodeksi. 22.09.1994. <https://lex.uz/docs/-111460>
3. M.X.Kadirova. "Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash". O'quv qo'llanma. Toshkent.2024.6-7-betlar. <https://drive.google.com/file/d/1gAqNLDr1fjem5x9Hz5NC8gCTCp0lObQy/view>
4. Akramov Behzod."Dalillar va isbot qilish tushunchasi va mohiyati". Maqola. 2024-yil dekabr. 1-to'plam. 38-son. www.pedagoglar.uz
5. "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori. 24.08.2018 yildagi 24-son. <https://lex.uz/docs/-3895986>
6. Italiya Jinoyat Protsessual Kodeksi. <https://canestrinilex.com/assets/Uploads/pdf/cf70b10e21/Italian-Code-of-Criminal-Procedure-canestriniLex.pdf>

Jinoyat ishini yuritishda dalillarni to'plash, mustahkamlash va rasmiylashtirish tartibi

Annotatsiya. Mazkur maqola orqali dalillar tushunchasi, ularning tasniflanishi, guruhlariga bo'linishi va turlari haqida keltirilgan. Jinoyat protsessida aybdor shaxsni aniqlash, aybsiz shaxslarning huquqlari oyoq osti bo'lishidan himoya qilish va sud odil qaror chiqarish uchun dalillarga asoslanadi. Shuning uchun ham dalillar har bir bosqichda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga maqolada Italiya Jinoyat protsessual kodeksiga muvofiq dalillar haqida va ularning turlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: isbot qilish, jinoyat protsessi, dalillarning maqbulligi, tergov bayonnomasi, hal qiluv qarori.

Порядок сбора, закрепления и оформления доказательств в уголовном производстве

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие доказательств, их классификация, группировка и виды. В уголовном процессе доказательства используются для установления виновного лица, защиты прав невиновных лиц от нарушения, а суд - для вынесения справедливого решения. Вот почему доказательства важны на каждом этапе. Кроме того, в статье представлена информация о доказательствах и их видах в соответствии с Уголовно-процессуальным кодексом Италии.

Ключевые слова: доказывание, уголовный процесс, допустимость доказательств, протокол следствия, решение.

Procedure for the collection, strengthening and formalization of evidence in criminal proceedings

Abstract. This article describes the concept of evidence, its classification, grouping, and types. In criminal proceedings, the establishment of the guilty party, the protection of the rights of innocent persons from infringement, and the issuance of a just decision by the court are based on evidence. Therefore, evidence plays an important role at each stage. At the same time, the article provides information on evidence and its types in accordance with the Italian Criminal Procedure Code.

Key words: proof, criminal procedure, admissibility of evidence, investigation report, decision.